



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|--|
| 1. B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|---|
| 1. M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor
F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

BADIIY ADABIYOTDA “ONG OQIMI” TEXNIKASINING TADRIJIIY SHAKLLANISHI

Rashidova Feruza Rasulovna

Namangan davlat universiteti dotsenti

E-mail: feruza.rashidova.uz@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy adabiyotda “ong oqimi” texnikasining paydo bo’lishi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tadqiq qilishni maqsad qilingan. Shuningdek, XX asr modernizm adabiyoti namoyandalari – Jeyms Joys, Virjiniya Vulf, Marsel Prust va Uilyam Folkner ijodida ong oqimi uslubining o’ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Badiiy adabiyotda ong oqimi inson ruhiyatini yanada chuqurroq ifodalash, yashirin fikr va hissiyotlarni o’quvchiga yetkazishda samarali usul bo’lib xizmat qilib kelmoqda.

Kalit so’zlar: ong oqimi, modernizm, ichki monolog, psixologik tasvir, adabiy uslub.

Abstract. This article examines the emergence, formation, and stages of development of the stream of consciousness technique in fiction. It analyzes the distinctive features of this method in the works of twentieth-century modernist writers such as James Joyce, Virginia Woolf, Marcel Proust, and William Faulkner. The study reveals that the stream of consciousness became an effective means of conveying the depths of human psychology, as well as transmitting hidden thoughts and emotions to the reader.

Keywords: stream of consciousness, modernism, interior monologue, psychological description, literary style.

Аннотация. В данной статье исследуются возникновение, формирование и этапы развития техники «потока сознания» в художественной литературе. Анализируются особенности использования этого метода в творчестве представителей модернистской литературы XX века — Джеймса Джойса, Вирджинии Вулф, Марселя Пруста и Уильяма Фолкнера. Исследование показывает, что «поток сознания» стал эффективным средством более глубокого выражения человеческой психики, передачи скрытых мыслей и чувств читателю.

Ключевые слова: поток сознания, модернизм, внутренний монолог, психологическое изображение, литературный стиль.

XX asr boshlarida jahon adabiyotida yangi badiiy izlanishlar kuchayib, inson tafakkuri va ruhiyatini chuqurroq ifodalashga intilish kuzatildi. Shu davrda yozuvchilar klassik realizmning tashqi voqealarga qaratilgan tasvir usullaridan chekinib, insonning ichki olamiga chuqur kirib borishga harakat qildilar. Ana shunday izlanishlar natijasida “ong oqimi” (stream of consciousness) texnikasi shakllandi va modernistik nasrning eng muhim xususiyatlaridan biriga aylandi.

Bu uslub o’z o’rnida, inson tafakkurining uzluksiz oqimini, assotsiatsiyalarni, tasodifiy fikr va hissiyotlarni bevosita aks ettirishga qaratilgan edi. Ong oqimi texnikasida voqealar izchil syujet asosida emas, balki qahramon ongida kechayotgan jarayonlar oqimida yoritiladi. Shu orqali insonning yashirin kechinmalari, ichki monologlari va sub’ektiv dunyoqarashi o’quvchiga yaqinlashtiriladi.

Shuningdek, ong oqimi texnikasining adabiyotga kirib kelishi realizm va naturalizm an’analari bilan keskin farq qilgan. Realist yozuvchilar tashqi dunyoni ob’ektiv tarzda tasvirlashga intilgan bo’lsalar, modernist yozuvchilar ong oqimi orqali inson ruhiyatining noaniq, chigal va ko’pincha irratsional tomonlarini ochishga urindilar. Shu sababli ong oqimi texnikasi nafaqat badiiy vosita, balki yangi adabiy tafakkurni shakllantirgan inqilobiy hodisa sifatida qaraladi.

ong oqimini usulini rivojlashinishi XX asr adabiyotida nafaqat psixologik tasvir imkoniyatlarini kengaytirish imkonini berdi, balki adabiy janrlar rivojiga ham sezilarli ta’sir ko’rsatdi. Bugungi kunda ham bu texnika zamonaviy yozuvchilarning asarlarida uchrab,

adabiyotshunoslikda muhim ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Ong oqimi texnikasining tadrijiy taraqqiyoti haqida so'z borarkan, biz bu oqim asoschisi sifatida tanilgan Uilyam Jeymsni tilga olmay iloji yo'q. "Ong oqimi" atamasi dastlab amerikalik psixolog Uilyam Jeyms o'zining "The Principles of Psychology" (1890) asarida qo'llagan bo'lib, u ongni uzluksiz oqim sifatida talqin qilib, "ong hech qachon izchil alohida bo'laklarga bo'linmaydi, u har doim oqim holatidadir" [James, 1890: 239] deya ta'kidlaydi. Bu g'oya keyinchalik adabiyotshunoslikda estetik kategoriya sifatida o'zlashtirilishiga sabab bo'ldi.

Adabiyotshunos Dorrit Kohnning fikricha, ong oqimi "inson tafakkurining to'g'ridan-to'g'ri nutqiy ekvivalenti bo'lib, ichki monolog shaklida voqelanishi mumkin" [Kohn, 1978: 7]. Bu ta'rif uslubning mohiyatini belgilabgina qolmay balki, uning badiiy matndagi o'rnini aniq ko'rsatib beradi.

XIX asr oxiri yozuvchilarida ong oqimiga xos elementlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, F. M. Dostoyevskiy "Jinoyat va jazo" romanini misol qilib oladigan bo'lsak, ushbu asar qahramoni Raskolnikovning ichki monologlari orqali inson ruhiyatining qarama-qarshi tomonlarini yoritilganini ko'rishimiz mumkin. Adabiyotshunos M. M. Baxtin bu usulni "polifonik roman" tushunchasi orqali izohlab, Dostoyevskiy qahramonlarining ongiy ovozlari mustaqil mavjudligini ta'kidlaydi [Бахтин, 1972: 15].

Yana bir rus yozuvchisi Lev Tolstoyning "Anna Karenina" romanidagi qahramonlarning ichki kechinmalari ham ong oqimi texnikasi shakllanishiga zamin yaratgan. Jirmunskiyning fikricha, Tolstoyning psixologik portretlarida inson fikrining bevosita jarayonlari aks etgan [Жирмунский, 1977: 214]. Shunday qilib ushbu badiiy "ong oqimi" texnikasi rus adabiyotida ham shakllanganligini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu badiiy usul ayniqsa, XX asr boshida ong oqimi modernizm adabiyotining asosiy belgilaridan biriga aylandi. Aynan shu davrda o'z rivojining yuksak nuqtasiga ko'tarildi desak mubolog'a bo'lmaydi. Ingliz adabiyoti namoyandalari ushbu badiiy texnikaning rivojiga ulkan hissa qo'shdilar.

Shulardan biri- Jeyms Joys bo'lib, u o'zining "Ulysses" (Ullis) (1922) romanida ong oqimi uslubini mukammal darajada qo'llaganini ko'rishimiz mumkin. Adabiyotshunos T. Igltonning ta'kidlashicha, "Ulissis inson ongining ichki ritmlari, sintaktik oqimlari va assotsiativ tuzilishini badiiylashtirish orqali adabiyotni tubdan yangiladi" [Eagleton, 1996: 84].

Ingliz adabiyotining yana bir yorqin adibasi Virjiniya Vulf ham o'zining "Dallovey Xonim" (1925) romanida qahramonlarning ongini vaqtning sub'ektiv idroki bilan uyg'unlashtirishga muvaffaq bo'ldi. E. Shovalter uning ijodini sharhlar ekan, "Vulf psixologik chuqurlik va vaqtning hissiy kechinmalardagi in'ikosini ong oqimi orqali badiiylashtirdi" [Showalter, 1999: 132] deydi.

Shuningdek, Marsel Prust "Yo'qotilgan vaqt izidan" romanida ong oqimini xotira va sezgi bilan bog'lab, shaxsiy kechinmalar orqali butun ijtimoiy-madaniy davr manzarasini yaratadi. S. Gilbert va S. Gubar bu asarni "ong oqimining estetik laboratoriyasi" deb ataydilar [Gilbert & Gubar, 2000: 412].

Mazkur "ong oqimi" usulining rivojiga nafaqat ingliz adabiyoti vakillari balki amerikalik yozuvchilari ham o'z hisalirini qo'shishdi, shu jumladan, Uilyam Folknerdir. Uilyam Folknerning "The Sound and the Fury" (Shovqin va g'azab) (1929) romani aynan ong oqimini turli nuqtai nazarlardan ko'rsatib, inson tafakkurining fragmentar tabiatini badiiy tarzda ifodalagan.

Turli tadqiqotchilar fikrlari shuni ko'rsatadiki, ong oqimi texnikasi bir vaqtning o'zida ham psixologik, ham estetik vazifani bajaradi. Adabiyotshunos Baxtin uni ko'p ovoqli tafakkur bilan bog'lasa, boshqa adabiyotshunos Iglton uni modernizmning eng inqilobiy usuli sifatida

baholaydi, Shovalter va Gilbert esa ong oqimini xotin-qiz yozuvchilar ijodida psixologik chuqurlik va estetik yangilanish manbai sifatida ko'rsatadilar.

Bizningcha, ong oqimi texnikasi adabiyotda inson ongining yashirin qatlamlarini ochishga qo'l keladigan beqiyos uslubdir. U nafaqat qahramonning ichki dunyosini ko'rsatadi, balki o'quvchini ham ongning murakkab oqimiga sherik qiladi. Shu bois ong oqimi texnikasi badiiy adabiyot tarixida nafaqat stilistik yangilik, balki insoniyat ruhiy holatini badiiy asarlarda aks ettirishdagi burilish nuqtasi sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Adabiy tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, ong oqimi texnikasi nafaqat individual psixologiyani tasvirlashga, balki butun ijtimoiy-madaniy kontekstni ko'rsatishga xizmat qiladi. Masalan, Vulf asarlarida ong oqimi orqali zamonaviy jamiyatning ruhiy muammolari ochilsa, Prust ijodida u xotira va vaqt fenomeni bilan bog'lanadi. Joys va Folkner esa ong oqimini til, sintaksis va assotsiativ tafakkur orqali yangicha poetik struktura yaratishda qo'llaganlar.

Fikrimizcha, ong oqimi texnikasi bu - inson tafakkurining murakkabligini ifodalashda universal usul ekanligi, adabiy jarayonda realizmdan modernizmga o'tishda muhim ko'priq vazifasini bajarganligi hamda o'quvchini ham qahramon ongining "hamkor ishtirokchisi"ga aylantirishligini ko'rsatdi.

Shuningdek, XXI asr adabiyotida ham ushbu badiiy usul (postmodern va zamonaviy psixologik romanlarda) o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Shunday qilib, ong oqimi texnikasi faqat badiiy uslub emas, balki inson ruhiyati, xotira va vaqtning badiiy in'ikosini tadqiq qilishda universal metod sifatida qaralishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ong oqimi texnikasi XX asr modernizm adabiyotining eng muhim estetik yangiliklaridan biri sifatida shakllandi. Jeyms, Vulf, Prust va Folkner singari yozuvchilar ushbu uslub orqali inson ongining murakkabligini, ichki monolog va yashirin kechinmalarni ifodalashda adabiyot imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdilar. Tadqiqotchilar (U. Jeyms, Baxtin, Iglton, Kohn va boshqalar) bu texnikaning nazariy asoslarini ishlab chiqib, uni psixologik, falsafiy va lingvistik nuqtayi nazardan talqin etdilar.

Ong oqimi texnikasi realizm va naturalizm an'analari bilan solishtirganda, inson ruhiyatini yanada chuqurroq, fragmentar va assotsiativ tarzda ko'rsatishga intildi. Bu esa nafaqat adabiy shakl, balki badiiy tafakkurning tubdan o'zgarishini ham bildiradi.

Bugungi kunda ham fikrimizcha, ong oqimi metodining o'rni o'z ahamiyatini yo'qotganicha yo'q. U postmodernizm va zamonaviy psixologik nasrda yangi tajribalar uchun zamin yaratmoqda. Demak, ong oqimi nafaqat XX asr modernistik adabiyotining belgisi, balki inson tafakkurining adabiy ifodasini izlashdagi abadiy badiiy izlanishlarning mahsulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Джеймс У. Поток сознания // Принципы психологии. – Санкт-Петербург: Питер, 2003. – 689 с.
2. Бахтин М. М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Художественная литература, 1972. – 502 с.
3. Eagleton T. Literary Theory: An Introduction. – Oxford: Blackwell, 1996. – 84 p.
4. Cohn D. Transparent Minds: Narrative Modes for Presenting Consciousness in Fiction. – Princeton: Princeton University Press, 1978. – 348 p.
5. Жирмунский В. М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Ленинград: Наука, 1977. – 368 с.
6. Showalter E. A Literature of Their Own: British Women Novelists from Brontë to Lessing. – London: Virago, 1999. – 132 p.
7. Gilbert S. M., Gubar S. The Madwoman in the Attic: The Woman Writer and the Nineteenth-Century Literary Imagination. – New Haven: Yale University Press, 2000. – 412 p.